# KORXONA HISOB SIYOSATINING MOHIYATI, SHAKLLANTIRISH PRINSIPLARI VA ASOSIY PARAMETRLARI TAHLILI

**Qo'ziyeva Maftuna Otabek qizi**
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasi asistenti
**Bobonorov Ravshan G'ayrat o'g'li**
Samarqand iqtisodiyot va
servis instituti talabasi
**Oblokulov Ja'far Orzuyevich**
Samarqand iqtisodiyot va
servis instituti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24133070

**Abstract.** This article analyzes the theoretical and legal essence of an enterprise's accounting policy, the conceptual principles of its formulation, as well as its key organizational and methodological parameters. In accordance with the National Accounting Standards (NAS), International Financial Reporting Standards (IFRS / IAS 8), and Article 77 of the Tax Code of the Republic of Uzbekistan, the relationship and key differences between financial and tax accounting policies are examined. The paper highlights the methodological criteria for valuing fixed assets and inventories, calculating depreciation, and recognizing revenue and expenses. Furthermore, it summarizes the methodology for reflecting changes in accounting policies and accounting estimates in financial statements through retrospective and prospective applications.

**Keywords.** accounting policy, NAS, IFRS (IAS 8), tax accounting policy, fixed assets, depreciation, inventories, retrospective application, prospective application.

**Аннотация.** В данной статье анализируются теоретико-правовая сущность учетной политики предприятия, концептуальные принципы ее формирования, а также основные организационные и методологические параметры. В соответствии с требованиями Национальных стандартов бухгалтерского учета (НСБУ), Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО / IAS 8) и Налогового кодекса Республики Узбекистан (ст. 77) рассматриваются взаимосвязь и различия между финансовой и налоговой учетной политикой. В работе освещаются методологические критерии оценки основных средств и товарно-материальных запасов, начисления амортизации, а также признания доходов и расходов. Кроме того, обобщена методология отражения изменений в учетной политике и бухгалтерских оценках в финансовой отчетности ретроспективным и перспективным методами.

**Ключевые слова.** учетная политика, НСБУ, МСФО (IAS 8), налоговая учетная политика, основные средства, амортизация, товарно-материальные запасы, ретроспективное применение, перспективное применение.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korxona hisob siyosatining nazariy-huquqiy mohiyati, uni shakllantirishning konseptual tamoyillari hamda asosiy uslubiy va tashkiliy parametrlari tahlil qilinadi. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS), Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS / IAS 8) va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 77-moddasi talablariga muvofiq, moliyaviy hisob va soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatlarining o'zaro bog'liqligi hamda farqli jihatlari ko'rib

chiqilgan. Maqolada asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralarni baholash, amortizatsiya hisoblash hamda daromad va xarajatlarni tan olish bo‘yicha uslubiy mezonlar yoritilgan. Shuningdek, hisob siyosatidagi o‘zgarishlar va hisob baholarini retrospektiv va perspektiv usulda moliyaviy hisobotda aks ettirish metodologiyasi umumlashtirilgan.

**Kalit so‘zlar.** hisob siyosati, BHMS, MHXS (IAS 8), soliq hisob siyosati, asosiy vositalar, amortizatsiya, tovar-moddiy zaxiralar, retrospektiv qo‘llash, perspektiv qo‘llash.

**Kirish.** Zamonaviy bo‘zor iqtisodiyoti sharoitida hamda O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) bosqichma-bosqich o‘tish va buxgalteriya hisobining milliy standartlarini (BHMS) takomillashtirish jarayonida korxonalarning moliyaviy shaffofligi va barqarorligini ta’minlash dolzarb masalalardan biridir. Ushbu o‘zgarishlar sharoitida korxona hisob siyosati xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini tartibga soluvchi va uning moliyaviy holatini haqqoniy aks ettiruvchi asosiy strategik hujjat sifatida namoyon bo‘ladi. Hisob siyosati shunchaki buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari to‘plami bo‘lmay, balki korxonaning aktivlari, majburiyatlari, daromad va xarajatlarini samarali boshqarish, soliq xavflarini minimallashtirish hamda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishning amaliy mexanizmidir.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 77-moddasi talablari, 1-son BHMS hamda 8-son BHXS (IAS 8) mezonlarining amaliyotga joriy etilishi buxgalteriya hisobi va soliq hisobi siyosatini bir-biri bilan uzviy muvofiqlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralarni baholash, amortizatsiya ajratmalarini hisoblash hamda hisob siyosatidagi o‘zgarishlarni retrospektiv va perspektiv aks ettirish tartibini to‘g‘ri belgilash korxona moliyaviy natijalarining xolisligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Korxona hisob siyosatining nazariy-huquqiy mohiyati, shakllantirish prinsiplari va asosiy parametrlarini hamda moliyaviy va soliq hisobi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks tahlil qilish hamda uni amaliyotda takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Asosiy qism.** Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi va shaffofligini ta’minlashda hisob siyosati markaziy o‘rinni egallaydi. Korxona hisob siyosati — bu xo‘jalik subyekti tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy va soliq hisobotlarini tuzish hamda taqdim etish uchun qabul qilingan konseptual tamoyillar, usullar, qoidalar va amaliy yondashuvlarning ichki me’yoriy majmuasidir. Hisob siyosati shunchaki rasmiy buxgalteriya hujjati bo‘lmay, korxonaning resurslarini boshqarish, aktivlarni baholash va moliyaviy natijalarni shakllantirishdagi strategik vositasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi me’yoriy-huquqiy tizimida hisob siyosati alohida ta’riflangan ikki tomonlama tabiatga ega. Birinchidan, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot maqsadlaridagi hisob siyosati shakllantiriladi. Ushbu yo‘nalish "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi Qonun, Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (xususan, 1-sonli BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati") va ularning o‘rnini to‘ldirib borayotgan Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS / IAS 8) asosida tartibga solinadi. Ikkinchidan, soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosati mavjud bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 77-moddasiga binoan soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi va soliq bazasini aniqlash, soliqlarni hisoblab chiqarish hamda soliq hisobotlarini shakllantirish mexanizmlarini mustahkamlaydi.

Buxgalteriya hisobi hamda soliq hisobi o‘rtasidagi zaruriy integratsiyani ta’minlash korxona rahbariyati va moliyaviy xizmatidan chuqur professional yondashuvni talab etadi. Moliyaviy hisob va soliq hisobi o‘rtasidagi me’yoriy tafovutlar sababli hisob siyosatida qabul qilingan uslubiy qarorlar korxonaning

sof foydasi ko‘rsatkichiga ham, to‘lanadigan soliqlar hajmiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ikki tizim o‘zining maqsadli yo‘nalishiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi: moliyaviy hisob siyosati tashqi va ichki foydalanuvchilar (investorlar, kreditorlar, menejment) uchun korxonaning moliyaviy holati va faoliyat natijalarini haqqoniy aks ettirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, soliq hisob siyosati soliq majburiyatlarini qonunchilik talablariga muvofiq ravishda va o‘z vaqtida hisoblash hamda to‘lashni reglamantlaydi.

Hisob siyosatini ishlab chiqishda iqtisodiy subyektlar moliyaviy axborotning ishonchliligi va obyektiyligini kafolatlaydigan bazaviy tamoyillarga tayanadi. 1-son BHMS va MHXS Konseptual asoslarida mustahkamlangan prinsiplar hisob mezonlarining poydevori hisoblanadi.

Uzluksizlik prinsipi korxonaning yaqin kelajakda (kamida 12 oy davomida) o‘z xo‘jalik faoliyatini davom ettirishi, tugatilish yoki faoliyat ko‘lamini keskin qisqartirish niyatida emasligini nazarda tutadi. Hisoblash usuli bo‘yicha esa xo‘jalik operatsiyalari va voqealar pul mablag‘lari kelib tushgan yoki to‘langan paytda emas, balki ular sodir bo‘lgan hisobot davrida aks ettiriladi hamda moliyaviy hisobotlarga kiritiladi.

Ehtiyotkorlik prinsipi noaniqlik sharoitida baholashlarni amalga oshirishda o‘ta bosiqlik bilan yondashishni talab etadi; bunda aktivlar va daromadlar bo‘rttirib ko‘rsatilishiga, majburiyatlar va xarajatlar esa kamaytirib aks ettirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Mazmunning shakldan ustunligi prinsipi operatsiyalar va hodisalarning faqat ularning huquqiy va rasmiy shakliga qarab emas, balki eng avvalo iqtisodiy mazmunidan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotda aks ettirilishini shart qilib qo‘yadi.

Ko‘rsatkichlarning qiyosiyligi va Muhimlik tamoyillari taqdim etilayotgan axborotning o‘tgan davr ko‘rsatkichlari bilan solishtirish mumkin bo‘lishini, shuningdek, uning tushirib qoldirilishi yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilishi foydalanuvchilarning qarorlariga ta’sir eta oladigan darajada ahamiyatli bo‘lishini belgilaydi. Ushbu tamoyillarni amaliyotga tatbiq etish korxonaga hisob usullarini tanlashda muayyan erkinlik darajasini beradi, biroq tanlangan usul hisobot yili davomida o‘zgarmasdan, izchil qo‘llanilishi shart.

Korxona hisob siyosatining tarkibiy tuzilmasi uchta o‘zaro bog‘liq bo‘limdan iborat bo‘lib, ularning har biri muayyan parametrlarni reglamantlaydi: tashkiliy-texnik parametrlari, uslubiy (metodologik) parametrlari hamda soliq solish parametrlari.

Tashkiliy-texnik bobo korxonada hisob ishlarini amaliy tashkil etish mexanizmlarini belgilaydi:

Buxgalteriya xizmatining shakli alohida buxgalteriya bo‘linmasini tashkil etish, shtatdagi bosh buxgalter lavozimini joriy etish yoki hisob yuritishni ixtisoslashtirilgan autsorsing tashkilotiga shartnoma asosida topshirish shaklida tanlanadi. Ishchi hisoblar rejasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlarining 21-son BHMS ko‘rsatmalari asosida korxonaning sohasi va texnologik xususiyatlariga moslashtirilgan sintetik va analitik hisobvaraqlar tizimini tasdiqlashni qamrab oladi.

Birlamchi hujjatlar va hujjatlar aylanishi (dokumentoborot) grafigi bo‘yicha standartlashtirilmagan ichki birlamchi hujjatlar shakllari tasdiqlanadi, elektron hisobvaraq-fakturalarni (EHF) raqamlash va rasmiylashtirish tartibi hamda hujjatlarning harakatlanish muddatlari belgilanadi. Inventarizatsiya tartibida aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish rejali hamda navbatdan tashqari muddatlari, javobgar komissiya tarkibi va qayta ro‘yxatdan o‘tkazish texnologiyasi (19-son BHMS mezonlari bo‘yicha) mustahkamlanadi.

Uslubiy bo‘lim moliyaviy hisob obyekti bo‘lgan aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromadlar va xarajatlarni baholash hamda tan olish usullarini belgilaydi. Usullarni tanlash mezonlari amaldagi BHMS va MHXS qoidalariga bo‘ysunadi.

Asosiy vositalar hisobi bo‘yicha 5-son BHMSning yangi tahriri talablariga ko‘ra, hisob siyosatida bir qancha muhim uslubiy parametrlar belgilanishi shart. Amortizatsiya hisoblash usuli sifatida to‘g‘ri chiziqli (tekis) usul, kamayib boruvchi qoldiq usuli yoki ishlab chiqarish (mahsulot hajmiga mutanosib) usulidan

biri tanlanadi. Amaldagi 5-sonli BHMS talablariga muvofiq, obyektning foydali xizmat muddati oxirida kutilayotgan tugatish (likvidatsiya) qiymati majburiy tartibda baholanadi hamda amortizatsiyalanadigan qiymat boshlang‘ich qiymatdan tugatish qiymatini ayirish orqali aniqlanadi:

$$\text{Amortizatsiyalanadigan qiymat} = \text{Boshlang'ich qiymat} - \text{Tugatish qiymati}$$

Asosiy vositalarni qayta baholash tartibida qayta baholashning davriyligi va usuli (belgilangan indekslar bo‘yicha indeksatsiya qilish usuli yoki hujjat bilan tasdiqlangan bozor narxlari bo‘yicha bevosita qayta hisoblash usuli) ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, obyektning kelgusidagi iqtisodiy nafi oshishiga olib keladigan rekonstruksiya va modernizatsiya xarajatlarini kapitallashtirish (boshlang‘ich qiymatni oshirish), joriy ta’mir xarajatlarini esa amalga oshirilgan davr xarajatlariga olib borish mezonlari ajratiladi.

Tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) hisobi bo‘yicha 4-son BHMS talablariga muvofiq, zaxiralarni hisobdan chiqarishda va balansda aks ettirishda bir qator muqobil usullar belgilab olinadi. Chiqib ketadigan zaxiralarni baholashda FIFO (birinchi kirim — birinchi chiqim) usuli yoki AVEKO (o‘rtacha tortilgan qiymat) usulidan biri tanlanadi. O‘rtacha tortilgan qiymat quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\text{AVEKO narxi} = \frac{\text{Boshlang'ich zaxira qiymati} + \text{Davr ichida kirim qilingan zaxiralar qiymati}}{\text{Boshlang'ich zaxira miqdori} + \text{Davr ichida kirim qilingan zaxiralar miqdori}}$$

Transport-tayyorgarlik xarajatlarini (TTX) hisobga olishda TTX summasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri zaxiralar boshlang‘ich qiymatiga kiritish yoki alohida kontr-hisobda yig‘ib, hisobot davri oxirida o‘rtacha foiz bo‘yicha sotilgan hamda qoldiq zaxiralar o‘rtasida taqsimlash usuli ko‘rsatiladi. Balans sanasida zaxiralar tannarx va sof sotish qiymatining eng past bo‘lgani bo‘yicha baholanadi. Nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddati hamda amortizatsiya usullari (7-son BHMS), ijara operatsiyalarini operativ va moliyaviy ijara sifatidagi tasnifi (6-son BHMS), shuningdek shubhali qarzlarning ehtimoliy yo‘qotishlari bo‘yicha rezerv shakllantirish mezonlari ham uslubiy bo‘limda qat’iy belgilanishi zarur.

| Hisob obyekti | Tanlov parametrlari (Muqobil usullar) | Normativ-huquqiy asos | Hisob siyosatida aks ettirishning o‘ziga xosligi |
|---|---|---|---|
| **Asosiy vositalar amortizatsiyasi** | • To‘g‘ri chiziqli (tekis)<br>• Kamayib boruvchi qoldiq<br>• Ishlab chiqarish usuli | 5-son BHMS (3546-son) | Tugatish (likvidatsiya) qiymati majburiy chegirib hisoblanadi. |
| **Asosiy vositalarni qayta baholash** | • Indeksli usul<br>• Bozor narxlari bo‘yicha bevosita usul | 5-son BHMS | Qayta baholash davriyligi va usuli guruhlar bo‘yicha bir xil qo‘llaniladi. |
| **TMZ hisobdan chiqarish** | • FIFO (First-In, First-Out)<br>• AVEKO (O‘rtacha tortilgan qiymat) | 4-son BHMS (3259-son) | LIFO usulini qo‘llash taqiqlangan; tanlangan usul yil davomida o‘zgarmaydi. |

| Hisob obyekti | Tanlov parametrlari (Muqobil usullar) | Normativ-huquqiy asos | Hisob siyosatida aks ettirishning o‘ziga xosligi |
|---|---|---|---|
| **Transport xarajatlari (TTX)** | • TMZ tannarxiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritish<br>• Alohida kontr-hisobda yig‘ib taqsimlash | 4-son BHMS 22-bandi | Texnologik va logistik jarayon murakkabligidan kelib chiqib tanlanadi. |
| **QQSni hisobga olish (Soliq hisobi)** | • Mutanosib usul<br>• Alohida-alohida hisob yuritish usuli | Soliq kodeksi 77, 264-moddalar | Soliq to‘lovchi iqtisodiy samaradorlikdan kelib chiqib belgilanadi. |
| **Soliq amortizatsiyasi** | • Soliq kodeksi cheklangan normalari bo‘yicha<br>• Buxgalteriya normalariga moslashtirish | Soliq kodeksi 306-moddasi | Buxgalteriya va soliq amortizatsiyasi tafovuti vaqtinchalik farqlarni hosil qiladi. |

Soliq Kodeksining 77-moddasiga muvofiq, soliq hisob siyosatida bir qator strategik ko‘rsatkichlar muvofiqlashtiriladi. Soliq Kodeksining 306-moddasiga binoan belgilangan eng yuqori cheklangan amortizatsiya normasi va buxgalteriya hisobida qo‘llaniladigan amortizatsiya normasi o‘rtasidagi vaqtinchalik tafovutlar belgilab olinadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) bo‘yicha nol darajali stavka yoki soliqdan ozod qilingan operatsiyalar mavjud bo‘lganda soliq summasini hisobga olishning mutanosib (proportional) yoki alohida-alohida (segregated) usuli tanlanadi. Shuningdek, buxgalteriya hisobida tan olingan, lekin Soliq kodeksi bo‘yicha chegirilmaydigan xarajatlar ro‘yxati hamda soliq imtiyozlaridan foydalanish tartibi shakllantiriladi.

**Xulosa.** Korxona hisob siyosatini shakllantirish va takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil quyidagi muhim xulosalarni beradi:

Hisob siyosati korxonaning moliyaviy strategiyasini amaliyotga tatbiq etuvchi poydevor hujjatdir. U faqat buxgalteriya bo‘limi uchun emas, balki tashqi investorlar, auditorlar hamda soliq organlari uchun korxonaning shaffofligi va me’yoriy muvofiqligini ko‘rsatuvchi asosiy mezon vazifasini bajaradi.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini yangilash (xususan, 1-son BHMS va 5-son BHMS yangi tahrirlari) hamda MHXSga o‘tish jarayoni aktivlarni baholash mexanizmlarini keskin o‘zgartirdi. Xususan, asosiy vositalar bo‘yicha tugatish qiymatini belgilash va amortizatsiyalanadigan qiymatni to‘g‘ri hisoblash talabi barcha xo‘jalik subyektlaridan hisob siyosatlarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Soliq va buxgalteriya hisobi o‘rtasidagi tafovutlarni minimallashtirish uchun Soliq kodeksining 77-moddasiga muvofiq tasdiqlanadigan soliq hisob siyosati buxgalteriya hisob siyosati bilan uzviy bog‘liq holda ishlab chiqilishi lozim. Soliq va buxgalteriya amortizatsiyasi normalarini imkon qadar muvofiqlashtirish va QQS bo‘yicha to‘g‘ri hisob usulini tanlash soliq xavflarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Korxonalar hisob siyosatiga kiritiladigan o‘zgarishlar hamda hisob baholaridagi tuzatishlarni to‘g‘ri diferensiasiya qilishlari va ularni moliyaviy hisobotda retrospektiv hamda perspektiv usullarda beg‘araz

yoritib berishlari shart. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarga hisob siyosatini har bir hisobot yili boshlanishidan oldin korxona rahbarining buyrug‘i bilan tasdiqlash, inventarizatsiya hamda ichki nazorat mexanizmlarini unga to‘liq integratsiya qilish hamda avtomatlashtirilgan hisob dasturlariga ushbu parametrlarni aniq kiritish tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). — Toshkent: Davlat soliq qo‘mitasi, 2020. (77, 264, 306-moddalar).
2. O‘zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi Qonuni (yangi tahriri), 2016-yil 13-aprel, O‘RQ-404-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-son BHMS) "Asosiy vositalar" (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 133-son buyrug‘i, Adliya vazirligida ro‘yxat raqami 3546).
4. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-son BHMS) "Tovar-moddiy zaxiralar" (Adliya vazirligida 2020-yil 30-iyunda 3259-son bilan ro‘yxatga olingan).
5. 8-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (IAS 8) "Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar" (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil 9-dekabrdagi 3400-sonli buyrug‘iga ilova).
6. "Hisob siyosati O‘zbekistonda: ishlab chiqish, tasdiqlash, tatbiq etish". axborot-tahliliy portali. buxgalter.uz
7. "2025-yildan boshlab asosiy vositalarni qayta baholash va tugatish qiymatini aks ettirish tartibi". axborot-tahliliy portali. buxgalter.uz